

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 202 (991), 2023-yil 3-oktabr, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



IKKI DAVLAT O‘RTASIDAGI O‘ZARO MANFAATLI HAMKORLIKNI YANADA KENGAYTIRISH MASALALARI KO‘RIB CHIQUILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qatar Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniyning taklifiga binoan 1-2-oktabr kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.



2-oktabr kuni Doha shahridagi “Amiri Devon” majmuasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini rasmiy kutib olishga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston yetakchisi Shavkat Mirziyoyevni Qatar Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy samimiy kutib oldi.

Oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tortdi. Harbiy orkestr ikki mamlakat madhiyalarini ijro etdi.

Davlat rahbarlari faxriy qorovul safi oldidan o‘tdilar va rasmiy delegatsiyalar a‘zolarini qutladilar.

“Amiri Devon” majmuasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qatar Davlati Amiri shayx

Tamim bin Hamad Ol Soniyning ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokidagi muzokaralari bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbari Qatar Amiriga tashrif bilan kelish taklifi hamda O‘zbekiston delegatsiyasiga ko‘rsatilayotgan mehmondo‘stlik uchun minnatdorlik bildirdi.

Siyosiy muloqotni yanada mustahkamlash, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish va madaniy-gumanitar almashinuvni faollashtirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Qatar Amiri joriy yil iyun oyida Samarqandga amalga oshirgan tarixiy tashrif mamlakatlarimiz munosabatlarida yangi bosqichni boshlagani ta‘kidlandi. O‘z-

bekiston bilan Qatar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada yuqori, strategik sheriklik darajasiga olib chiqishga qat‘iy intilish bildirildi.

Turli darajalarda muloqotlar faollashtirish, biotexnologiyalar va sun‘iy intellekt, “yashil” energetika borasida qo‘shma tadqiqotlar o‘tkazishdan manfaatdor ekani ta‘kidlandi. Dohada O‘zbekiston madaniyati va turizm haftaligini o‘tkazishga kelishib olindi.

Global va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar ham muhokama qilindi.

Transafg‘on temir yo‘lini qurish loyihasini amaliy ilgari surish masalalarini qo‘llab-quvvatlash muhimligi qayd etildi.

Tomonlar Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlikni ta‘minlash uchun afg‘on xalqiga gumanitar yordam ko‘rsatishni davom ettirish muhimligi haqida yakdil fikr bildirdilar.

Uchrashuv yakunida davlat rahbarlari bir qator qo‘shma “yo‘l xarita”larini tayyorlash va erishilgan kelishuvlarni samarali ro‘yobga chiqarish mexanizmlarini yaratish topshirig‘ini berdilar.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qatar Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniyning muzokaralaridan so‘ng ikki tomonlama hujjatlarni imzolash marosimi bo‘ldi.

taraqqiyot strategiyasining maqsad va vazifalariga hamohang bo‘lgan “Nigoh 2030” davlat dasturiga yuqori baho berildi.

Tomonlar savdo ko‘rsatkichlarini karrasiga oshirish, an’anaviy va “yashil” energetika, neft-kimyoy, metallarni chuqur qayta ishlash, qishloq xo‘jaligi, qurilish, turizm, moliya va boshqa sohalarda qo‘shma investitsiya loyihalarini amalga oshirishga tayyorligini bildirdi.

Ishbilarmonlik aloqalarini faollashtirish uchun 2024-yil yanvar oyida Dohada qo‘shma Hukumatlararo komissiya, Ishbilarmonlar kengashining birinchi yig‘inlari va biznes-forumini o‘tkazish taklif qilindi.

Madaniyat, ta‘lim va turizm sohalaridagi almashinuvni kengaytirishga qaratilgan sa‘y-harakatlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash lozimligi qayd etildi.

O‘zbekiston Qatarning ilmiy va ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikni chuqurlashtirish, biotexnologiyalar va sun‘iy intellekt, “yashil” energetika borasida qo‘shma tadqiqotlar o‘tkazishdan manfaatdor ekani ta‘kidlandi. Dohada O‘zbekiston madaniyati va turizm haftaligini o‘tkazishga kelishib olindi.

Global va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar ham muhokama qilindi.

Transafg‘on temir yo‘lini qurish loyihasini amaliy ilgari surish masalalarini qo‘llab-quvvatlash muhimligi qayd etildi.

Tomonlar Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlikni ta‘minlash uchun afg‘on xalqiga gumanitar yordam ko‘rsatishni davom ettirish muhimligi haqida yakdil fikr bildirdilar.

Uchrashuv yakunida davlat rahbarlari bir qator qo‘shma “yo‘l xarita”larini tayyorlash va erishilgan kelishuvlarni samarali ro‘yobga chiqarish mexanizmlarini yaratish topshirig‘ini berdilar.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qatar Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniyning muzokaralaridan so‘ng ikki tomonlama hujjatlarni imzolash marosimi bo‘ldi.

Xususan, hamkorlikning turli sohalarni qamrab oluvchi quyidagi hujjatlarni imzolandi:

— O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Qatar Davlati Hukumati o‘rtasida turizm va ishlabarmonlik tadbirlari sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi va Qatar Davlati Ijtimoiy rivojlanish va oila vazirligi o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risida memorandum;

— O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va Qatar Davlati Ichki ishlar vazirligi o‘rtasida o‘zaro anglashuv memorandum;

— O‘zbekiston Respublikasi Tikanish va taraqqiyot jamg‘armasi va Qatar Davlati Investitsiya agentligi o‘rtasida investitsiyaviy hamkorlik to‘g‘risida o‘zaro anglashuv memorandum;

— O‘zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi va Qatar Davlati Ma‘muriy nazorat va shaffoflik boshqarmasi o‘rtasida o‘zaro anglashuv memorandum;

Bundan tashqari, tashrif doirasida quyidagi kelishuvlarga erishildi:

— O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari qo‘mitasi va Doha dinlararo muloqot xalqaro markazi o‘rtasida o‘zaro anglashuv memorandum;

— O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo‘yicha milliy markazi va Qatar Davlati Inson huquqlari bo‘yicha milliy qo‘mitasi o‘rtasida o‘zaro anglashuv memorandum;

— O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi va Qatar Davlati Savdo-sanoat palatasi o‘rtasida qo‘shma ishlabarmonlar kengashini tuzish to‘g‘risida bitim;

— O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi va Qatar Davlati Savdo-sanoat palatasi o‘rtasida o‘zaro anglashuv memorandum;

Prezident Shavkat Mirziyoyev shu kuni Doha shahrida o‘ziga ajratilgan qarorgohda Qatar Davlatining sobiq Bosh vaziri, mamlakatdagi qator yirik investitsiya va sanoat xoldinglari asoschisi Hamad bin Jassim Ol Soniy qabul qildi.

O‘zbekiston va Qatarning yetakchi kompaniya va korxonalar o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Energetika, sanoat, infratuzilma, turizm, bank-moliya sohalarda istiqbolli loyihalarini amalga oshirish shular jumlasidan.

Davlatimiz rahbari ekspertlar guruhi shakllantirish va “yo‘l xaritasi”ni qabul qilish orqali qo‘shma loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish muhimligini ta‘kidladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qatarga davlat tashrifi doirasida “EKSPLO Doha — 2023” butunjahon ko‘rgazmasining ochilish marosimida ishtirok etdi.

Tantanali tadbirda Qatar Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy, Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayon, Iroq, Yaman va boshqa qator mamlakatlarning davlat va hukumat rahbarlari qatnashdi.

“EKSPLO Doha” mintaqada o‘tkazilayotgan ilk global “yashil” ko‘rgazmadir. Tadbir “Yashil sahro, yanada yaxshi atrof-muhit” shiori ostida o‘tkazilmoqda va kelgusi yil mart oyiga qadar davom etadi.

Forum ishtirokchilari atrof-muhitni muhofaza qilish, ekotizimlarni rivojlantirish, “aqlli” qishloq xo‘jaligini joriy qilish, yangi turdagi ekinlarni yetishtirish, innovatsion bog‘lar yaratish va boshqa yo‘nalishlardagi ilg‘or texnologiyalar va yutuqlar bilan tanishdi.

Ko‘rgazma doirasida tashkil etilgan O‘zbekiston milliy pavilyonida intensiv dehqonchilik va chorvachilik, ekologik menejment sohalaridagi eng yangi texnologiyalar, mamlakatimiz bog‘dorchilik va oziq-ovqat tarmoqlari taqdimotlari namoyish etilmoqda.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qatarga davlat tashrifi yakunlandi.

O‘Z

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

MUNOSABAT

MARKAZIY OSIYONING HAM, DUNYONING HAM TINCHLIGIGA BOG‘LIQ MASALA

Bugungi dunyo global muammolar qurshovida qolmoqda. Tinchlik va barqarorlikni asrash, milliy o‘zlikni va chegaralar daxlsizligini saqlab qolish tobora qiyin tus olmoqda. Bunday vaziyatda Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlik va xavfsizlik, barqaror rivojlanishni ta‘minlash, inson huquqlarini himoya qilish yo‘lida a‘zo davlatlar sa‘y-harakatlarini birlashtirish mas‘uliyati tobora ortib bormoqda.

Shu o‘rinda ikkita muhim ma‘lumotni aytib ketsak: BMTning Nyu-Yorkdagi bosh qarorgohi peshtoqiga Sharqning ulug‘ shoiri Shayx Sa‘diyning bayti bitilgan. Bu bayt BMT maqsadlarini anglatib turadi, ya‘ni insoniyatni urush ochmaslikka, bir-birini asrab-avaylashga

undaydi. Dunyoda allomalar, mutafakkirlar, faylasuflar ko‘p, ularning hikmatlari son-sanoqsiz, lekin dunyo Tashkiloti Sharq olamining buyuk donishmandi so‘zini o‘z shiori sifatida qabul qilgani biz uchun juda katta faxr.

Davomi 2-betda

ISLOHOT ODIMLARI

TARIXIY FURSAT YAQIN

Uni yanada tezlashtirish uchun qanday chora-tadbirlar ko‘rilishi kerak?

“O‘zbekiston Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishiga bir qadam qoldi”, “O‘zbekiston Jahon savdo tashkilotiga a‘zolikka yaqin!”, “O‘zbekiston tez orada JSTga a‘zo bo‘ladi”...

Keyingi paytda ommaviy axborot vositalarida shunga o‘xshash sarlavhalar ostidagi ko‘ngilni ko‘taradigan, o‘nlab yillik orzular ro‘yobga chiqayotganiga doir materiallar tez-tez chiqib turibdi. Prezidentimiz joriy yil 19-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasi doirasida Jahon savdo tashkiloti (JST) bosh direktori Ngozi Okonjo-Iweala bilan uchrashdi. Unda O‘zbekistonning tez fursatda JSTga a‘zo bo‘lishi bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari O‘zbekiston o‘z oldiga o‘rta va uzoq muddatli rivojlanish bo‘yicha qo‘ygan maqsadlardan kelib chiqqan holda tashkilotga qo‘shilish muhim ahamiyatga ega ekanini alohida ta‘kidladi. Ishchi guruhning navbatdagi

yig‘ilishini tayyorlash, shuningdek, jaryonda ishtirok etayotgan mutaxassislar salohiyatini kuchaytirish va malakasini oshirish masalalariga e‘tibor qaratildi.

Davomi 3-betda

TARAQQIYOT YO‘LI



O‘Z-O‘ZIDAN PAYDO BO‘LIB Q‘OLMAGAN

ULAR BIZNES, TADQIQOTLAR VA RESURSLAR O‘RTASIDAGI BO‘SHLIQNI TO‘LDIRADI, MAHSULDORLIKNI KO‘PAYTIRADI

Paxta desa odamlar yuragi zirillaydigan kunlar ortda qoldi. Mana, mamlakat miqyosida o‘quvchi-yu talabasi, byudjet tashkilotlari xodimlarisiz ham paxta sifati va nes-nobud qilinmasdan terib olinayapti. Buning sababi oddiy — paxta manfaatga aylandi, dehqon mehnati qadr topyapti. Bu paxtachilikda yaratilgan huquqiy asos tufayli ta‘minlanayapti.

Prezidentimizning 2021-yil 16-noyabrda “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni paxtachilikni majburiy mehnatdan xoli, serdaromad sohaga aylantirish,

to‘qimachilik va qayta ishlash sanoati rivojini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiluvchi muhim hujjatlardan biri bo‘ldi.

Davomi 4-betda

MAHALLANING O‘SISH NUQTASI



EPLAGAN ELAKDA SUV TASHIR 2

TA‘LIM



XOLBOYEVNING OILAVIY MAKTABI 5

MUNOSABAT

MARKAZIY OSIYONING HAM, DUNYONING HAM TINCHLIGIGA BOG'LIQ MASALA



Qobilbek KARIMBEKOV, siyosiy sharhlovchi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist

Boshlanishi 1-betda

Bugun BMTga 194 davlat a'zo. Biz 1992-yil 2-mart kuni 185-davlat bo'lib a'zo bo'lganmiz. Jahondagi 250 dan ortiq mamlakatning hammasi ham BMT a'zosi bo'la olmagan. Biri kuzatuvchi, bir endi a'zo bo'lish arafasida.

BMT minbarida yangragan xalqaro miqyosdagi muammolar yechimi-ga qaratilgan tashabbus va takliflar, sa'y-harakatlar, birdamlikka chaqirgilar insoniyatni ogohlikka chorlashi bilan g'oyat ahamiyatlidir. BMT Bosh Assambleyasining joriy yilgi 78-sessiyasi ham shu jihatlari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqi keng jamoatchilik, siyosiy doira vakillari e'tiboriga tushdi. Shu kunlarda bu nutq mazmun-mohiyati, bildirilgan taklif va tashabbuslarning dunyoviy xarakteri faol sharhlanyapti, turli munosabatlar bildirilyapti.

Boisi, nutqda global masalalar o'rtaga tashlandi, ularning yechimlari bo'yicha aniq xulosalar berildi. Jumladan, Markaziy Osiyoning bugungi qiyofasi, mintaqaxalqlarining maqsadu muddaosi, suv, ekologiya muammosi, ishsizlik, terrorizm, ekstremizm, Afg'oniston, Orol fojiasi, temir yo'l, infratuzilmalar kabi masalalar ko'tarildi, yangi tashabbus va takliflar ilgari surildi.

Aytish kerak, odatda BMT Bosh Assambleyasida nutq so'zlash uchun ko'p vaqt berilmaydi, reglamentga qat'iyl amal qilinadi. Masalan, har bir chiqish uchun 7, 15, uzugi bilan 25 daqiqa ajratiladi. E'tiborli jihati, joriy yil 19-sentabr kuni O'zbekiston Prezidentiga 25 daqiqa taqdim etildi va Shavkat Mirziyoyev bu vaqt davomida o'zbek tilida gapirib, juda muhim masalalarni o'rtaga tashladi.

Albatta, nutqda ko'p masalalar ko'tarildi, biz e'tiborni ko'proq Afg'oniston masalasiga qaratmoqchimiz. Esimda, 2018-yil mart oyida Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi Afg'oniston tinchligi bo'yicha xalqaro anjuman o'tkazilgan edi. 2021-yilda Markaziy va Janubiy Osiyo anjumani bo'lib o'tdi. Bularni aytayotganimiz boisi shundaki, Markaziy Osiyoda tinchlik o'rnatishda Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi va roli juda katta.

Davlatimiz rahbari Bosh Assambleya 78-sessiyasida yana bir bor Afg'oniston tinchligiga e'tibor qaratdi. Qayd etish kerakki, O'zbekiston tomoni bu borada barcha zarur chora-tadbirlarni ko'rmoqda. Xususan, 5-6 yildan buyon Afg'oniston shimoldagi 6 ta viloyatga elektr energiyasi yetkazib berilyapti. "Termiz — Mozor Sharif — Kobul — Peshovar" temir yo'li qurilyapti.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, xalqaro xavfsizlik Afg'onistondagi jarayonlar bilan bevosita bog'liq. Shu bois, "Afg'onistonni o'z muammolari bilan yana yolg'iz qoldirish — bu katta xato bo'ladi. Inkor qilish, yakkalab qo'yish va sanksiyalar qo'llash oddiy afg'on xalqining ahvolini yanada og'irlashtirmoqda", deyildi nutqda.

E'tibor qiling, Afg'onistonning pullari bir necha yildan buyon muzlatib qo'yilgan. Dunyo kimga jahl, kimga jabr qilyapti? Kim bilan aloqalarni uzyapti? Axir Afg'onistonda tinch aholi ham borku! Aytib o'taylik, u yerda 30 dan ziyod millat va elat vakillari yashaydi.

Afg'onistonda birodarkushlik mojaro-si boshlanganiga yarim asr bo'lyapti. Ammo uning oxiri hech ko'rinay demaydi. Shu bois, Prezidentimiz BMT minbarida bu boradagi ahvolni o'nglash borasida aniq taklif va tashabbuslarni ilgari surdi. Xususan, birinchi galda

ochiq Afg'oniston kerak, dedi davlatimiz rahbari.

Afg'oniston bo'yicha juda ko'p fikr-mulohazalar aytish mumkin. Bu mamlakat jo'g'rofiy jihatdan barchani maftun qiladigan diyori. Bu zamin sir-asrorlarini, jozibasini yanada chuqur anglash uchun Bobur bobomizning "Boburmoma" sini o'qish kerak. Unda sehri o'lkani ko'p tafsilotlari aytilgan.

Agar faktlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 1979-yil dekabrda sobiq Ittifoq afg'on hududiga katta harbiy kuch tashladi. Natijada 2 million aholi qirilib ketdi. 1983-yili, bundan 40 yil avval Afg'oniston mojarosi avjiga chiqayotgan paytda yana 147 ming askar olib kirildi. Bu ham ushbu mamlakatni tamoman vayron qildi. Tinch aholining 4 millioni Eronga, 5 millioni Pokistonga qochib ketdi. Ularning ko'pi qaytib kelgani yo'q.

Bugun ham Afg'onistonga pinhona qurol berayotgan davlatlar bor. Lekin shunga qaramay bu mamlakatning kelajagi buyuk, deb ayta olamiz. Chunki bu yerda Mendeleyev jadvalidagi barcha elementlar bor. Xalqi donishmand.

Afg'onistonda tinchlik o'rnatish uchun, avvalo, ba'zi davlatlar o'zaro til topishib olishi kerakka o'xshab qoldi. Bunga esa BMT bosh-qosh bo'lishi kerak.

Shu ma'noda, Prezident Shavkat Mirziyoyev bir qator takliflarni ilgari surib keladi. Ular Afg'oniston bo'yicha BMT va kolatxonasini ochish, tinchlik anjumanlarini o'tkazish kabidir.

Xulosa o'rinda aytmoqchimaniki, davlatimiz rahbarining BMT minbarida aytgan fikrlari dunyo hamjamiyatini Afg'oniston muammosini hal etish yo'lida birlashishga chaqiradi. Eng muhimi, bu borada BMT tomonidan Afg'oniston bo'yicha birlashish ishlab chiqilgan, vaziyatga moslashuvchan va konstruktiv pozitsiyani belgilash prinsiplari jihatdan muhim.

DAVLATIMIZ RAHBARINING BMT MINBARIDA AYTGAN FIKRLARI DUNYO HAMJAMIYATINI AFG'ONISTON MUAMMOSINI HAL ETISH YO'LIDA BIRLASHISHGA CHAQIRADI. ENG MUHIMI, BU BORADA BMT TOMONIDAN AFG'ONISTON BO'YICHA BIRGALIKDA ISHLAB CHIQLIGAN, VAZIYATGA MOSLASHUVCHAN VA KONSTRUKTIV POZITSIYANI BELGILASH PRINSIPIAL JIHATDAN MUHIM.

afg'on xalqiga insonparvarlik yordami ko'rsatishni susaytmaslik, uning muzlatilgan xalqaro aktivlarini bu yurtdagi o'tkir ijtimoiy muammolarni hal etishga yo'naltirish uchun maqbul mexanizmlarni ishlab chiqish zarurligi aytiladi. Zero, bizga tinch va barqaror, mintaqaviy hamkorlik jarayonlarida ishtirok etadigan, qo'shnilari va boshqa mamlakatlardan bilan o'zaro manfaatli sheriklik uchun

Biz dunyoda notinch bo'lib qolayotgan davlatlar haqida kuyinib gapiramiz. Bugungi vaziyatdan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, dunyoning qaysi bir chetida urush yoki nizo kelib chiqsa, uning salbiy oqibatlari ko'p o'tmay dunyoga ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, Afg'oniston tinch ekan, Markaziy Osiyo tinch, jahon ahli tinch bo'lishini takrorlashdan charchamaymiz.

NUQTAYI NAZAR

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 70-maqsadi yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishga qaratilgan. Unda 13 yo'nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni yanada rivojlantirish orqali mamlakatimiz yoshlarining jamiyat hayotidagi, yurt taraqqiyotidagi o'rini yuksaltirish ko'zda tutilgan.

JAMIYATIMIZNING YANGI QIYOFASI har jahada faol va qudratli yoshlar bilan shakllanadi

Bugun shu chora-tadbirlar ahamiyati yoshlar hayotida qanday aks etmoqda?

Birinchi, **yoshlarning oliy ma'lumot olishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida samarali tizim yo'lga qo'yildi.**

Tahillilarni shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston ta'lim tizimi yil sayin o'zgarib bormoqda. O'tgan olti yilda maktabgacha ta'limdagi qamrov 21 foizdan 70 foizga, oliy ta'limda esa 9 foizdan 38 foizga yetdi. 2030-yilga qadar maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichini 100 foizga yetkazish maqsad qilingan. Maktabni bitirayotgan har ikki o'quvchining biri esa oliygohda o'qishi uchun imkoniyat yaratiladi.

Statistikaga ko'ra, mamlakatimizda oliy o'quv yurtlari soni 210 taga yetgan. Shuningdek, masofaviy, sirtqi kabi yoshlar uchun maqbul ta'lim shakllari yo'lga qo'yilgani, talabalarga ishlash uchun ruxsat berilgani ham katta imtiyoz va imkoniyatdir. E'tibor bersak, keyingi yillarda jamoat transportlarida, xiyobon-u ko'chalarda yosh yigit-qizlarning katta to'loqiniga guvoh bo'lyapmiz. G'ayratli to'loqin o'z-o'zidan paydo bo'lib qolgan yo'q. Bu — yoshlarga berilgan hech imkoniyat va imtiyozlar samarasi.

Ularining qay biri bilan suhbatlashmang, yo o'qishdan va yoki ishdan qaytayotgan bo'ladi. Shu tariqa jamiyatimizda jo'shqin hayot shukhi paydo bo'ldi.

Bu yoshlarga oid davlat siyosatining yuqori darajaga ko'tarilgani samarasi. Xususan, yoshlarning oliy ta'lim olishi uchun yaratilgan imkoniyat va imtiyozlar ko'lami kengligi bilan e'tiborga mo'lik. Aytaylik, OTMlar bakalavriat va magistratura bosqichlarida tahsil olayotgan faol talabalarga o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi 86 foiz va undan yuqori bo'lgan taqdirda ta'lim bo'yicha to'lov kontrakti miqdorining 35 foizi yoshlar tashkiloti ko'magida to'lab berilmoqda.

Qolaversa, 2021-yil 1-sentabrdan oliy ta'lim muassasalarida to'lov-kontrakt asosida o'qiyotgan talabalar uchun Markaziy bankning asosiy foiz stavkasi miqdorida va o'qish muddati tugagandan keyin yettinchi oydan boshlab 7 yil muddatda qaytarish shartlari asosida ta'lim kreditlari berish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Umuman, bu boradagi yangiliklar haqida ko'p aytish mumkin. Xotin-qizlar, turli ijtimoiy daftarlarda turgan yoshlar, ko'makka muhtoj va yetim yigit-qizlarning oliy ta'lim olishini qo'llab-quvvatlash kabi sa'y-harakatlar va xayriy tadbirlar shular jumlasidan.

Ikkinchi, **yoshlarni uy-joy bilan ta'minlash borasida ham mutlaqo yangi tizim yo'lga qo'yildi.**

Mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan har bir yoshning oldida ko'ndalang turgan muhim masala o'z uyiga ega bo'lish muammosi bo'lib kelgan. Ta'kidlash kerakki, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, qonunchilikda ham yoshlar manfaatiga xizmat qiluvchi normalar ko'paymoqda.

Bu Prezidentimizning "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi farmonida ham o'z aksini topgan. Mazkur farmon asosida O'zbekiston yoshlar ittifoqi tizimida 3 yil va undan ko'p muddat davomida faol ishlab kelayotgan xodimlarga uy-joy sotib olish uchun ipoteka kreditining boshlang'ich to'lovi to'lab berilmoqda.

"Temir daftar" va "Ayollar daftari"ga kiritilgan oilalar farzandlari hamda "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga yangi turmush qurayotganida o'z xonadonida qo'shimcha uy-joy qurishi uchun 33 million so'mgacha garovsiz kredit, yosh oilalarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish maqsadida ipoteka dasturi doirasida boshlang'ich badal va foiz to'lovlari bo'yicha qo'shimcha 2 mingga yosh oilaga uy-joy sotib olishi uchun subsidiya ajratilishi belgilangan.

Yosh oila tomonidan olingan ipoteka kreditlarini va ular bo'yicha hisoblangan foizlarni er-xotin yoki ulardan birining yoshi belgilangan yoshdan oshguniga qadar har bir soliq davri davomida tegishli miqdorda qoplashga yo'naltirilgan ish haqi va boshqa daromadlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan ozod qilinadi.

Uchinchi, **yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekistonning yangi imiji shakllandi, deiyish mumkin.**

Bunga misollar ko'p. Tumanlarda yoshlar tadbirkorlik klasterlari tashkil etilib, foydalanilmayotgan davlat obyektlari, shuningdek, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalaridagi obyektlar Yoshlar ittifoqi a'zosi bo'lgan yosh tadbirkorlarga to'lovsi jiraga berilmoqda. Bu, o'z navbatida, tadbirkorlikka qiziqqan, bu borada endi faoliyat boshlayotgan yoshlar uchun juda katta imtiyozdir.

Qolaversa, ta'lim muassasasini tamomlaganiga uch yil bo'lmagan, birinchi marta ishga qabul qilingan yoshlarga daromad solig'i birinchi yil uchun 50 foiz, ikkinchi va uchinchi yillar uchun esa 25 foiz kamaytirilgan bo'lib, O'zbekiston yoshlar ittifoqi huzurida turli fanlar, jumladan, chet tillarni o'rgatish, kompyuter dasturlarini tuzish va tadbirkorlik asoslarini o'qitish maqsadida ochiladigan sho'ba korxonalar 2027-yil 1-avgustga qadar barcha soliqlardan ozod etilgan.

Bugunlik yoshlari intellektual salohiyati bilan ajralib turadi. Ularning tashabbuslarni o'rganish, amaliyotga tatbiq etish choralarni ko'rish yaxshi samara berishi mumkin. Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori asosida bu borada alohida chora-tadbirlar belgilangan. Masalan, yoshlar tomonidan ilgari surilgan takliflar, muammo hamda boshqa masalalar yechimi yuzasidan har yili Yoshlar kuni arafasida hukumat dasturi, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri, tuman va shahar hokimliklarining alohida hududiy

dasturlari qabul qilinadi. Mazkur dasturlar yoshlarning bilim va kasb-hunar egallashi, ular uchun munosib ish va turmush sharoitini yaratish, bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlardan iborat bo'ladi.

Bundan tashqari, yoshlarning tadbirkorlik va kasb-hunarga o'qish xarajatlarining 75 foizigacha qismi hokim yordam-chisining ijrovi tavsiyasi asosida to'lab berilishi mumkin. Yoshlarga, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini boshlash va o'zini o'zi band qilish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar va mehnat qurollarini xarid qilish uchun ham subsidiya beriladi.

To'rtinchi, **yoshlarni moddiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash.**

Bu o'rinda ko'pchilikni qiziqtirgan masala subsidiya bilan bog'liq. Subsidiyalar, asosan, ijtimoiy ahvoli og'ir bo'lgan yoshlar manfaatlariga qaratilgan. Xususan, "Yoshlar daftari"ga kiritilgan moddiy ahvoli og'ir yoshlarga BHMning 4 barobarigacha moddiy yordam berib kelinadi. Moddiy yordam olish uchun mahalladagi yoshlar yetakchisiga ariza berish kifoya.

E'tiborli yana bir jihati. Hozirgi kunda davlat idoralari, muassasalarida ishlayotgan yoshlar ko'plab huquq va imkoniyatlarga ega. Xususan, ularga alohida ustamalar to'lanadi. Lekin ular davlat organlari, tashkilot va muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan nufuzli xalqaro reyting tashkilotlarining yuqori 500 talik ro'yxatiga kiritilgan xorijiy oliy ta'lim muassasalarini tamomlagan yoki ularda ilmiy daraja olgan yosh mutaxassislar bo'lishi dardor. Shunday bo'lsa, yoshlarning mavozim maoshiga davlat budgeti mablag'lari hisobidan qo'shimcha ustamalar to'lab boriladi.

Fursatdan foydalanib yana qo'shimcha qilishni istardimiki, 2021-yil 1-oktabrdan yoshlarning "Biznesga birinchi qadam" startap g'oyalari tanlovlari o'tkazib kelinadi hamda unda har bir tuman va shaharda kamida uch nafardan g'olibga grant berish amaliyoti joriy etilgan. Ya'ni eng yaxshi loyihalarning har biri uchun bazaviy hisoblash miqdorining 200 barobarigacha grant mablag'lari beriladi va ular 2022-2023-yillarda davlat budgetidan 100 milliard so'm miqdorida qo'shimcha ajratiladigan mablag' doirasida amalga oshiriladi.

Xulosa o'rinda aytish kerakki, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsadlarning har biri, avvalo, jamiyatimizning yangi qiyofasini yaratishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir. Bu borada biz, yoshlarga suyanishimiz va ishonishimiz lozim. Shunday ekan, bugun yoshlarimiz uchun yaratilayotgan barcha imkoniyat va imtiyozlar zahirida islohot-larimizning ortga qaytmas tus olishini mustahkamlash muddaosi bor.

Maqsud QURBONOV, Samarqand viloyati Adliya boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari

MAHALLANING O'SISH NUQTASI

Mahallabay ishlash va kambag'allikni qisqartirish, aholi bandligini ta'minlash orqali nochor oilalarni moddiy qiyinchiliklardan xalos etish borasida Buxoro viloyatining Vobkent tumanida ham tizimli ishlar olib borilmoqda. Tumanda ishsiz xotin-qizlar bandligi ta'minlashi masalasini salkam 3400 kishi yashaydigan Rozmoz mahallasi misolida ko'rib chiqsak.



EPLAGAN ELAKDA SUV TASHIR

Hunarmand quyosh panellari o'rnatmoqchi

Patdo'zlik yo'nalishida bir necha shogird yetishtirib, ustoz-shogird an'anasi asosida faoliyat yuritayotgan Narzigul Sanoyeva aynan shu mahallada istiqomat qiladi. U kasbi tufayli mahalladagi 6 xotin-qizni ishli qildi. Narzigul tayyor matolarini nafaqat Buxoro, balki Qashqadaryo bozorlarida ham sotmoqda. Ayni vaqtda hunarmand ayol korxonaga ochib, xonadonlarga quyosh panellari o'rnatish bilan shug'ullanmoqchi.

— Ayolning qo'lidan kelmaydigan ishning o'zi yo'q. Jonfidolik, harakatchanlik qonimda bor. Ayollar faqat sarishtali uy bekasi, mehribon ona va sadoqatli yorgina emas, balki har ishni eplay oladigan mehnatkash, uddaburon, — deydi u.

Ishsiz ayollar ishli bo'lyapti

— Fuqarolarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda subsidiya yoxud imtiyozli kredit ajratish mahalladagi hokim yordamchisi ko'magida "onlayn" tarzda amalga oshirilib kelinmoqda, — deydi Vobkent tumani oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i Yulduz Zuhurova. — Tuman bandlikka ko'maklashish markazi bilan hamkorlikda bo'sh ish o'rinlari mavjud korxonaga va tashkilotlarga sayohatlar, hududiy mehnat yarmarkalari uyushtirilmoqda. Xotin-qizlar bandligini ta'minlash faoliyatimiz asosini tashkil etadi. Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda ishsiz erkaklarga nisbatan ishsiz ayollar ko'pchilik. Ayollarni ish bilan, tadbirkorlik faoliyatini bilan band qilish jarayonida ularning oilaviy holatini yaqindan o'rganib, imkoniyatlarini inobatga olgan holda kerakli tavsiya va yo'nalishlarni berishga harakat qilamiz.

Rozmoz mahallasida yashovchi Dildora Esonova hozir Buxoro shahridagi



monomarkazda tashkil etilgan tikuvchilik kursida tahsil olyapti. Eng muhimi, sertifikat asosida Dildoraga tikuvchilik dastgohlari va boshqa kerakli uskunalarni ham olib beriladi. Rozmoz mahallasining o'zida 3 ayolga tikuvchilik sirlari o'rgatilib, bandligi ta'minlanmoqda.

Mehnatdan kelsa boylik...

Xalqimiz eplagan elakda suv tashir, deydi. Rozmoz mahallasida bunday ta'rifga munosib, ishbilanmon ayollar saki feng. Zohida

Hotamova ulardan biri. Uncha-muncha erkakdan qolishmaydigan darajada mehnatkash, shijoatli bu ayol 3 sotix tomorqasida gul yetishtirish bilan shug'ullanadi.

Hozir Zohida gulchilik orqali mahallasidagi ayollar uchun ish o'rinlari yaratishni ko'zlab turibdi. Uning tomorqasida xitoy atirguli, benjamin, shiftlari, geram, qora shahzoda, fikust kabi 50 turdagi gul ko'chatlari parvarishlab kelinmoqda.

— Gul ko'chatlari bozor, korxonaga va tashkilotlarga sotishdan kelgan daromadni

4 qizimning sarpolariga sarfladik. Bundan tashqari, o'g'limning o'qish kontraktini to'ladik, oilamiz ehtiyoji uchun 3 ta mashina sotib oldik, — deydi faxr bilan xonadon sobibi Zarif Jamolov.

Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik, degan hikmatli so'zning ma'nosini Zohida Hotamova oilasi misolida ko'rish mumkin. Chindan ham, inson go'zallikka intilar ekan, g'iyoh unmaydigan taqir yerni yoki sahroni bog'u bo'stonga, gulzorga aylantirish hech gapmas. Albatta, har bir ishning ortida mashaqqatli mehnat va intilish bor, hech bir ishga osonlikcha erishib bo'lmaydi.

— Mahalladagi tadbirkorlar va ziyolilar qatlami bilan do'stona aloqa o'rnatish ishimizning muhim bir bo'lagi, — deydi mahalladagi xotin-qizlar faoli Sarvinov Komilova. — Chunki bu ikki qatlam ko'magi va maslahatlash ayollar bandligini ta'minlash, jamiyatdagi o'rni va faolligini ko'tarish, tadbirkorlik yo'nalishidagi loyihalarni amalga oshirish qiyin.

Sarvinovning gaplarida jon bor. Aslida, uning tinimsiz harakatlari va har ishga jonbozligi bois, mahalladagi barcha xotin-qizlar to'liq xatlovdan o'tkazilib, muammolarini hal etish borasida chora-tadbirlar belgilab olingan.

Bugun mahallalardagi shakllantirilayotgan bu tizim orqali yurimizda "Ayol baxli bo'lsa, jamiyat baxli bo'ladi", degan eng g'oya amaliy ifodasini topishi, hayotimizning kundalik qoidasiga aylanishi muhim.

Gulichehra DURDIYEVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

ISLOHOT ODIMLARI

“MAMLAKATIMIZNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISHI JARAYONINI JADALLASHTIRISHGA DOIR KO'RILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR BAJARILISHI QANCHA TEZLASHSA, SHUNCHA YAXSHI. IQTISODIYOTNING HAR TOMONLAMA RIVOJLANISHIGA YANADA KENG YO'L OCHILADI, BIZNES MUHITI, MA'MURIY YANGILANISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR HAM YECHIMINI TOPADI.

TARIXIY FURSAT YAQIN

Uni yanada tezlashtirish uchun qanday chora-tadbirlar ko'rilishi kerak?



Abduraufov QORJOVOV, iqtisodiy sharhlovchi

Boshlanishi 1-betda

JST bosh direktori O'zbekiston tomonidan tashkilotga a'zo bo'lish borasida ko'rilayotgan choralar yuqori baholadi. Ngozi Okonjo-Iweala JST kotibiyati O'zbekistonning sa'y-harakatlarini to'liq qo'llab-quvvatlashini hamda mamlakatimiz yaqin kelajakda tashkilotga qo'shilishiga ishonch bildirdi. Uchrashuv yakunida ishchi guruhning navbatdagi yig'ilishiga tayyorgarlikni jadallashtirish, mutaxassislarining malakasini oshirish hamda qonunchilikni JST bitim va qoidalariga uyg'unlashtirish yuzasidan kelishuvga erishilgan.

Demak, marra yaqin, bunday paytda otni qamchilash, har bir fursatning qadriga yetish zarur. Davlatimiz rahbarining shu yil 2-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida ham xuddi shu masalalarga doir ishlar belgilab berilgan.

Shu o'rinda tabiiy ravishda tug'iladigan "JST qanday xalqaro tuzilma", "Nima uchun a'zo bo'lish bugungi kunda mamlakatimiz uchun ustuvor vazifalardan biriga aylangan", degan savollarga qisqacha izoh berib o'tish maqsadga muvofiq.

Majburiy tamoyil va qoidalar

Jahon savdo tashkiloti — xalqaro savdoni liberallashtirish, savdo va siyosiy munosabatlarni tartibga solish bilan shug'ullanadigan hukumatlararo tuzilma. U 1947-yilda tuzilgan xalqaro bitim — GATTning davomchisi. Dunyodagi eng yirik hisoblangan xalqaro iqtisodiy tashkilotga 164 davlat a'zo va jahon yalpi ichki mahsulotining 95 foizi ular hissasiga



to'g'ri keladi. O'zbekiston tovar aylanmasining 97 foizi mazkur davlatlarning birligidagi ulushini tashkil etadi.

— O'zbekiston 2019-yilda bu xalqaro tuzilmaga qo'shilish jarayonini qayta boshlagan edi, — deydi Bojxona instituti dotsenti To'loqin Pardayev. — 2023-yil mart oyida Jenevada ushbu jarayon bo'yicha ishchi guruhning oltinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Hozir O'zbekiston 16 ta davlat bilan muzokaralarni yakunladi. Jarayonda jami 47 ta mamlakat ishtirok etayotgan bo'lib, shundan 31 tasi bilan muzokaralar faol kechmoqda.

Xalqaro savdo iqtisodiyot rivoji hamda qashshoqlikni kamaytirishda misli ko'ril-magan imkoniyatlarni taklif qiladi. Biroq ushbu salohiyat ro'yobini ta'minlash global savdoni xalqaro darajada boshqarish va tartibga solishni taqozo etadi. Agar bunday boshqaruv va majburiy tamoyillar bo'lmasa, xalqaro globallashuv va savdo hozirgi vaziyatni yaxshilash o'rniga iqtisodiy tengsizlik, ijtimoiy adolatsizlik, atrof-muhitning tanazzuli va madaniy bir xillikni kuchaytirishi mumkin.

Shu bois, JSTga a'zo mamlakatlar uchun majburiy tamoyil hamda qoidalar belgilangan. Uning asosiy vazifasi global iqtisodiyotni kuzatish orqali xalqaro savdo izchilligi va shaffofligini tartibga solish, a'zo mamlakatlar barqaror taraqqiyotini ta'minlab, insonlar turmushini yaxshilashdan iborat.

Ekspert Umid Yoqubxo'jayevning fikricha, JST huquqiy tizimining xalqaro savdoni tartibga solib turuvchi asosiy moddiy normalarni quyidagi toifalarga ajratish mumkin: diskriminatsiyaga yo'l qo'y-maslikni talab qiluvchi qoidalar (milliy va eng qulay rejim); bozorga kirish qoidalar (tariflar va tarif bo'lmagan choralar); savdoni erkinlashtirishni boshqa ijtimoiy qadriyat va manfaatlar bilan muvozanatlash tartiblari; adolatsiz savdo bilan bog'liq qoidalar (demping va subsidiyalar); maxsus sohalarda milliy qonunchiliklarni uyg'unlashtirishga ko'maklashadigan qoidalar (savdodagi texnik to'siqlar, sanitariya va fitosanitariya choralar, intellektual mulkni himoya qilish). Shuningdek, JST huquqiy doirasida qarorlar qabul qilish, savdo siyosatini ko'rib chiqish va nizolarni hal qilish qoidalarini o'z ichiga olgan institutsional va protsessual tamoyillardan iborat.

— A'zo mamlakatlar hukumatlari va mintaqalar ma'muriyatlari JST qonunchiligiga bo'yusinishi shart, — deydi To'loqin Pardayev. — Tashkilot huquqlari buzilgan taqdirda "aybdor" mamlakatga nisbatan xalqaro sudga da'vo qilish, unga jazo choralarini qo'llash, investitsiya qilingan mablag'larni olib qo'yish bilan tahdid qilinadi.

JST qarorlari konsensus (maslahatlashish) asosida qabul qiladi. Agar konsensusga erishilmasa, tuzilmani ta'sis etish to'g'risidagi bitimdagii ovoz berish tartibiga binoan amalga oshiriladi. Bunday hollarda qarorlar "bir mamlakat — bir ovoz" tamoyili asosida ovozga qo'yiladi.

Qarorlar ikki yilda bir marta chaqiriladigan vazirlar konferensiyasida qabul qilinadi. Kundalik amalga oshirilayotgan ishlarga Bosh kengash mas'ul. Uning yig'ilishlari tashkilotning ma'muriy



qarorgohi joylashgan Shveysariyaning Jeneva shahrida bir yilda bir marta o'tkaziladi. Ularda tashkilotga a'zo mamlakatlar vakillari, elchilar ishtirok etadi.

Hujjatlar mohiyati va ularning asosiy jihatlari

Prezidentimizning shu yil 2-iyundagi yuqorida qayd etilgan qarorining asosiy mohiyati mazkur xalqaro tuzilmaga a'zo bo'lish jarayonini tezlashtirish va sifatlari amalga oshirishni ta'minlashga qaratilgan. Shu maqsadda Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash bo'yicha idoralararo komissiyaning yangilangan tarkibi tasdiqlandi, Prezident Administratsiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Jahon savdo tashkiloti masalalari bo'yicha maxsus vakili lavozimini tashkil qilindi. JSTga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirish, mas'ul vazirlik va idoralari faoliyatini natijadorligini ta'minlash bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish maxsus vakilining asosiy vazifalari sirasiga kiradi.

Hujjatga muvofiq, Adliya vazirligiga ma'muriy islohotlar doirasida milliy qonunchilikni JST bitimlariga uyg'unlashtirish vazifasi yuklandi. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi markaziy apparatida Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash va savdo muzokaralari departamenti tashkil etildi. O'zbekistonning BMTning Jeneva shahridagi bo'linmasi va boshqa xalqaro tashkilotlar hududidagi doimiy vakolatxonasida



JST masalalari bo'yicha birinchi kotib lavozimini kiritildi. 2023-yil 1-iyuldan JST qoida va me'yorlariga muvofiq bo'lmagan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ishlab chiqish taqiqlanishi belgilab qo'yildi.

Qarorda O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirish uchun 2023-yilda jami 30 milliard so'm, shu jumladan, Vazirlar Mahkamasi zaxira jamg'armasi hisobidan 10 milliard so'm va Eksportni rag'batlantirish agentligiga mo'ljallangan mablag'lar doirasida 20 milliard so'm hamda 2024-yildan boshlab ushbu tadbirlarni moliyalashtirish uchun davlat byudjeti parametrlarida zarur mablag'lar ko'zda tutildi.

Shu yil 15-avgust kuni Prezidentimiz "O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchilikni Jahon savdo tashkiloti bitimlariga uyg'unlashtirish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi farmoni imzoladi. Unda qayd etilishicha, 2024-yil 1-yanvardan boshlab alohida davlatlardan olib kelingan mahsulotlarning muvofiqligini majburiy baholashdan ozod etish tartibi bekor qilinadi, import tovarlarni davlat tilida markirovka qilish tartibiga o'zgartirish kiritiladi.

Bunda Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan ro'yxat bo'yicha import qilinadigan iste'mol tovarlarining ayrim turlari (iste'mol qadoqlariga ega bo'lmagan hamda o'z ehtiyoji uchun olib kelingan tovarlardan tashqari) ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqaruvchining vakolati vakili va import qiluvchi tomonidan O'zbekiston Respublikasining davlat tilida (lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida) markirovka qilinmagan taqdirda, mazkur tovarlarga muvofiq sertifikatini hamda sanitariya-epidemiologik xulosani rasmiylashtirish taqiqlanadi, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno sanaladi.

Shu bilan birga, 2025-yil 1-yanvardan dori-darmon va tibbiyot buyumlarini olib kirishda bojxona qiymatining 1,2 foizi miqdorida bojxona rasmiylashtiruvchi yig'imi bekor qilinadi. Shu munosabat bilan 2024-yilgacha tegishli vazifalarni amalga oshirishni muvofiq moliyalashtirish bo'yicha takliflar kiritish yuzasidan topshiriq berilgan.

Vazirlar Mahkamasi joriy yilning 1-oktabrigacha tovarlarni import qilish uchun litsenziya berish jarayonini avtomatlashtirish (raqamlashtirish), 2024-yilning 1-yanvariga qadar transport xarajatlarini kompensatsiya qilish uchun

subsiyada berish tizimini Jahon savdo tashkiloti talablariga moslashtirish bo'yicha takliflar kiritish vazifasi yuklangan.

Mazkur farmon 2024-yil 1-yanvardan, qonun hujjatlariga kiritilgan o'zgartirishlar esa 2025-yil 1-yanvardan kuchga kiradi. Bundan tashqari, farmonning mantiqiy davomi sifatida joriy yil 21-avgust kuni Vazirlar Mahkamasi hukumatning ayrim qarorlarini JST bitimlariga uyg'un-

Xalqaro tuzilmaga a'zo mamlakatlarga ko'p tomonlama muzokaralar doirasida 15 dan ortiq muhim hujjat taqdim etildi. O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi bo'yicha ishchi guruhning 7-yig'ilishida o'tkazish yuzasidan tayyorgarlik jarayoni yakuniy bosqichga kelgan. Bundan tashqari, yil yakuniga qadar 10 dan ortiq davlat bilan muzokaralarni yakunlash bo'yicha jiddiy choralar ko'rilmog'da.

JST bilan ishlashda milliy ekspert va mutaxassislar malakasini oshirish, kadrlar tayyorlash bo'yicha ham sezilarli ishlar qilinmoqda. Joriy yilning 5-8-sentabr kunlari qishloq xo'jaligi yo'nalishida JST kotibiyati bilan hamkorlikda o'quv seminari tashkil etildi. Bunday tadbirlarning keyingisi xizmatlar sohasi yo'nalishi bo'yicha o'tkaziladi. Aslida, ushbu seminar ham JSTga aloqador xodimlar va akademik soha vakillari tajribasini oshirishga xizmat qiladi.

Yana qanday masalalarga e'tibor qaratish lozim?

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti ekspertlari Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish dunyo mamlakatlari iqtisodiyoti-ga qanday ta'sir etganini tahlil qildi. Bunda

“UCHTA ASOSIY YO'NALISH — MILLIY QONUNCHILIK VA AMALIYOTNI JST QOIDALARIGA UYG'UNLASHTIRISH, KO'P VA IKKI TOMONLAMA MUZOKARALARNI FAOLLASHTIRISH BO'YICHA JIDDIY CHORALAR KO'RILMOQDA. XUSUSAN, RAQOBAT, STANDARTLASH, TEXNIK TARTIBGA SOLISHGA DOIR QONUNLAR KUCHGA KIRMOQDA. PREZIDENTNING YUQORIDA AYITILGAN FARMONI HAMDA VAZIRLAR MAHKAMASI QARORI BILAN 15 DAN ORTIQ QONUNCHILIK HUJJATI JST TALABLARIGA MOSLASHTIRILDI.

lashtirish bo'yicha qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, yuridik maslahatchilar tashkiloti avval faqat xorijiy davlatlar huquqi bo'yicha maslahat berishi belgilangan bo'lsa, endilikda ular xalqaro huquq bo'yicha ham maslahat berishi mumkinligi belgilandi. Shuningdek, standartlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va qo'llashda JST Savdodagi texnik to'siqlar kelishuvining vijdonan yondashish amaliyoti kodeks talablari bajarilishini ta'minlashi ko'rsatib o'tildi. Ushbu kodeks milliy standartlar xalqaro standartlarga asoslanishi va ularni belgilashda nodiskriminativlik, ochiqlik hamda JSTning "eng qulay rejim" (Most Favored Nation) va "milliy rejim" (National Treatment) tamoyillari qo'llanilishini nazarda tutadi.

Maqsad-vazifalar aniq, ular ijrosi qanday ta'minlanayapti?

Shu yil 11-sentabr kuni O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayoniga bag'ishlangan xalqaro seminarida xuddi shu masalalar bo'yicha so'z bordi.

O'zbekiston Prezidentining JST masalalari bo'yicha maxsus vakili Azizbek O'rinovning so'zlariga ko'ra, JST O'zbekiston uchun, shubhasiz, ustuvor vazifa. Prezidentimiz tomonidan idoralararo komissiya va muzokaralar guruhi zimmasiga aniq vazifalar belgilab berilgan va erishilishi mumkin bo'lgan maqsadlar qo'yilgan.

Uchta asosiy yo'nalish — milliy qonunchilik va amaliyotni JST qoidalariga uyg'unlashtirish, ko'p va ikki tomonlama muzokaralarni faollashtirish bo'yicha jiddiy choralar ko'rilmog'da. Xususan, raqobat, standartlash, texnik tartibga solishga doir qonunlar kuchga kirmog'da. Prezidentning yuqorida aytilgan farmoni hamda Vazirlar Mahkamasi qarori bilan 15 dan ortiq qonunchilik hujjati JST talablariga moslashtirildi.

JSTga 1990-yildan keyin a'zo bo'lgan 15 ta rivojlanayotgan mamlakat — Albaniya, Bahrayn, Bangladesh, Kamerun, Gruzniya, Gonduras, Iordaniya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Mo'g'uliston, Nepal, Rossiya, Shri Lanka, Turkiya, Vanuatuning eksport va import, YIMning o'sishi, inflyatsiya, ishsizlik, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar YIMdagi ulushi hamda ishlab chiqarish sanoatining milliy iqtisodiyotdagi hissasi kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlardagi o'zgarishlar o'rganildi.

Ma'lum bo'lishicha, ushbu 15 ta mamlakatdan 12 tasida eksportning, 10 tasida esa YAIMning o'sish sur'ati tezlashgan, 12 tasida inflyatsiya sekinlashgan va 10 tasida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ko'lami oshgan. Bangladesh, Gonduras, Turkiya va Kamerunda ko'pchilik yo'nalishlar bo'yicha ijobiy natijalar kuza-tilgan.

Shu bilan birga, salbiy tendensiya hisoblangan ishsizlik darajasi 15 ta mamlakatdan 10 tasida o'sgan. Masalan, Bangladeshda ishsizlik 2,3 dan 3,5 foizga, Gondurasda 3,4 dan 4,4 foizga, Qirg'izistonda 6,8 dan 8,7 foizga oshgan. Ushbu mamlakatlarning 2 tasida ishlab chiqarish sanoatining YIMdagi ulushi oshgan bo'lsa, 6 tasida kamaygan.

Tashkilotga a'zo bo'lgan Qozog'iston, Turkiya va Gruzniyaning makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar JSTga a'zo bo'lmagan shunday mamlakatlardagi o'zgarishlar bilan qiyoslangan. Natijalarga ko'ra, sezilarli ijobiy o'zgarish faqat eksport va importda kuzatilgan. Qolgan yo'nalishlardagi ko'rsatkichlar de-yarli farq qilmagan. Masalan, Qozog'iston JSTga a'zo bo'lgandan keyin ishsizlik darajasi 5,3 dan 4,9 foizga pasaygan. Ozarbayjonda ham aynan shu davrda 5,2 dan 4,9 foizga kamaygan. O'zbekistonda esa 5 dan 5,6 foizga oshgan.

Avvalgi sharhlarimizda ham JSTga a'zolik O'zbekistonga qanday manfaat keltiradi, degan savolga kengroq javob berishga intilgan edik. Mutaxassislar



fikrlarini muxtasar eslasak, JSTga kirish O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotiga kuchli turtki beradi. Avvalo, yangi sarmoyalar asosida qo'shimcha ish o'rinlari yaratiladi, mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulot sifatini oshirib, dunyo bozorida kuchi raqobatga ko'nikadi. O'z navbatida, iste'molchilar arzon va sifatlari tovarlar hamda xizmatlarni tanlash imkoniga ega bo'ladi.

Ammo dastlabki davrda tashqi bozordan tovarlar oqimi ko'payishi tufayli tariflar pasayishi O'zbekistonda mahalliy ishlab chiqarishning zaif tarmoqlariga salbiy ta'sir qilishi ham ehtimoldan yiroq emas. Bu borada o'tkazilgan tadqiqotlar, eng avvalo, tariflar va ichki narxlar pasayishi eksport hajmi 0,06 foiz ortishiga va ichki tovarlar taklifi 0,03 foiz kamayishiga olib kelishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Ayni paytda ichki bozorda narxlar pasayishi natijasida iste'mol hajmi 0,11 foiz ortadi. Davlat byudjeti daromadlari qisqarishi hisobiga jami jamg'armalar 0,35 foiz kamayadi. Jamg'armalar hajmi kamayishi investitsiyalar darajasi 0,16 foiz tushishiga olib kelishi ehtimoli bor.


Shu bois, yangi sharoitga muammosiz o'tishni ta'minlash va O'zbekistonda milliy korxonalarini tashqi raqobat sharoitiga bosqichma-bosqich tayyorlash uchun yangi muhit yaratish zarur. Xorijiy kompaniyalarning O'zbekiston bozoriga kirishi bilan tariflarning bosqichma-bosqich pasaytirilishi mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun texnologik va kadrlar bazasini takomillashtirish orqali sifatlari oshirish, korxonalarining narx siyosatini qayta ko'rib chiqishi hamda iste'molchilarning didi va ehtiyojini tizimli ravishda o'rganishi uchun tayanch vazifasini o'taydi.

O'zbekiston jahon miqyosidagi savdo siyosatini bo'yicha muhim qarorlarni qabul qilishda ishtirok etadi. Bojxona ma'muriyatchiligi va qonunchilik bo'yicha institutsional islohotlar amalga oshirilishi tizimdagii korruptsiya darajasini kamaytirishga ko'mak beradi. Mamlakat ichidagi ayrim monopol kompaniyalarning ichki bozordagi ustun mavqega chek qo'yiladi va erkin raqobat muhiti yaratiladi.

O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi bo'yicha ishchi guruhning sobiq raisi, Koreya Respublikasining BMTning Jeneva shahridagi bo'limi va boshqa xalqaro tashkilotlardagi sobiq elchisi Li Tayeho bunday degandi: "O'zbekiston JST a'zoliciga nomzod davlatlar ichida eng muhimi hisoblanadi. Aminmanki, uning tashkilotiga a'zo bo'lishi ushbu mintaqadagi davlatlarning global savdo hamkorligi va iqtisodiy kooperatsiyasida muhim o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Koreya Respublikasi tajribasiga qarasa, JSTga a'zolik mamlakat iqtisodiy va barqaror rivojlanishiga juda katta omil bo'lib xizmat qilayapti. O'zbekistonning bugungi sa'y-harakatlari ushbu tashkilotga kirishda jiddiy qadam deb bilaman va ushbu jarayonni tezroq yakunlash bo'yicha zarur choralar ko'rilishiga ishonaman".

— Yaponiyaning ko'plab yirik kompaniyalari O'zbekistonga juda katta qiziqish bilan qaraydi, — deydi Yaponiyaning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Takashi Xatori. — Uning JSTga a'zo bo'lishi ushbu kompaniyalarning O'zbekistonga investitsiya kiritishida amaliy ishlarga o'tishi uchun juda katta zamin bo'ladi, deb o'ylayman.

Qissadan hissa shuki, mamlakatimizning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi jarayonini jadallashtirishga doir ko'rilayotgan chora-tadbirlar bajarilishi qancha tezlashsa, shuncha yaxshi. Iqtisodiyotning har tomonlama rivojlanishiga yanada keng yo'l ochiladi, biznes muhiti, ma'muriy yangilanish bilan bog'liq muammolar ham yechimini topadi.



Nodir ABDULLAYEV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti prorektori,
siyosiy fanlar doktori, professor

QATARNING ILM-FAN VA INNOVATSIYALARGA KATTA E'TIBOR QARATAYOTGANI SIRI

Prezidentimizning 2020-yil 16-apreldagi "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalar, shuningdek, Qatar amiri Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniyning joriy yil 5-6-iyun kunlari mamlakatimizga ilk davlat tashrifi davomida Prezidentimiz bilan o'tkazgan muzokaralari natijasida erishilgan kelishuvlar ijrosi doirasida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti delegatsiyasi Qatarda bo'ldi.

Qatar oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida hamkorlikni rivojlantirish, xususan, arab tili bo'yicha fan dasturlari, o'quv adabiyotlari yaratish, zamonaviy texnologiyalar asosida arab tilini o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, oldimizda pedagoglar uchun o'quv seminarlar, malaka oshirish kurslari tashkil etish, ilmiy-tadqiqot markazlari bilan loyihalarni bajarish, arab tili, tarjimonlik, tarixiy va adabiy manbahunoslik, turizm, xalqaro jurnalistika kabi sohalarida kadrlar tayyorlash vazifasi turibdi.

Ayni paytda mazkur mutaxassisliklar bo'yicha bilim va malakaga ega sharqshunos-arabshunoslarni tayyorlash bo'yicha Qatar universitetlari bilan yaqindan hamkorlik qilish dolzarb bo'lib qolmoqda. Zero, dunyo bo'yicha e'tirof etilgan QS World University Rankings, Times Higher Education kabi nufuzli xalqaro reytinglarda Qatar universiteti, Hamad bin Xalifa universiteti, "Al-Jazira" media instituti mazkur davlat oliy ta'lim muassasalari ichida eng yuqori ko'rsatkichga ega.

Qatar ta'limi so'nggi yillarda jadal sur'atda rivojlanmoqda. Mamlakatda maktabgacha ta'limdan tortib oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichda islohotlar amalga oshirilmoqda. Zamonaviy talabarga javob beradigan innovatsion ta'lim tizimini yaratishga katta e'tibor qaratilayotir. Bu, o'z navbatida, mamlakatning barqaror rivojiga xizmat qilmoqda. Diqqatga loyiq jihati shundaki, Qatar universitetlarining o'quv dasturi dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari standartlariga moslashtirilgan, talabalarining ijtimoiy va aqliy qobiliyatini rivojlantirishga qaratiladi. Shu bois, yuqoridagi zikr etilgan universitetlar faoliyatini o'rganish va tajriba almashish e'tiborga loyiq. Hozir ular Qatar va umuman, arab davlatlari oliy ta'lim muassasalari milliy reytingida eng yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda.

Mamlakatning innovatsion rivojlantirish strategiyasiga muvofiq, 2030-yilga qadar Qatarda innovatsion iqtisodiyotni yaratish maqsadida ilmiy tadqiqotlarga katta e'tibor beriladi. Ushbu strategiya doirasida davlatning ilm-fan sohasidagi salohiyatini oshirish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirish va jahon ilmiy hamjamiyatiga integratsiyalashuv ko'zda tutilgan.

Ta'lim sifatini muntazam oshirib borish davlat strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Mamlakatda pedagog va ilmiy kadrlarni tayyorlash jarayonida ular xorijda o'qitilmoqda.

Shu bois, oliy ta'lim sohasiga davlat katta miqdorda mablag' ajratadi. Ta'lim sifati va ilmiy salohiyatni oshirish uchun yetakchi xorijiy professor-o'qituvchilar taklif etilgan. Ular yordamida ta'lim dasturlari takomillashtirilmoqda. Talabalarining chet eldagi nufuzli ta'lim dargohlarida o'qish imkoniyati kengaytirilmoqda. Qatar fondi moliyaviy ko'magida xorijlik yetakchi olimlar bilan hamkorlikda ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari, shuningdek, innovatsion ilmiy-texnologik rivojlanish markazlari tashkil etilgan. Ularda, asosan, gaz sanoati, tabiiy fanlar, axborot texnologiyalari sohalaridagi ilmiy ishlanmalar amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Qatar yirik gaz-neft zaxiralari tushadigan milliy daromadni, birinchi navbatda, xalq turmush darajasini ko'tarish, yurt manfaatlarini ilgari surish doirasida aholi uchun qulay shart-sharoit yaratishga yo'naltirilmog'da. Bu esa mamlakatda oliy ta'lim tizimi, ilmiy tadqiqot faoliyati hamda innovatsion siyosatni tobora ravnaq toptirishni taqozo etmoqda. Shu tariqa Qatar oliy ta'lim va innovatsion rivojlanish sohasida muhim yutuqlarga erishmoqda.

Qatar milliy tadqiqotlar jam'armasi dunyoning yetakchi olimlariga Dohadagi zamonaviy laboratoriyalarda ilmiy tadqiqotlar o'tkazish uchun qulay shart-sharoit yaratib bermoqda. Shuningdek, innovatsion startap loyihalarga moliyaviy va texnologik ko'mak berish tizimi yo'lga qo'yilgan. Yosh tadbirkorlar o'z loyihalarini amalga oshirish uchun zarur resurs va grantlarga ega bo'ladi.

Hukumatning sa'y-harakati natijasida Qatar universiteti tarkibida tashkil etilgan Gaz va neft muhandisligi akademiyasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlanmoqda. Bu sohada eng so'nggi ilmiy yutuqlar o'rganilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda. Shuningdek, robototexnika va sun'iy intellekt sohasida tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Eksperimental biologiya markazining tibbiyot va biotexnologiyalar sohasidagi innovatsion tadqiqotlari natijasida genetik kasalliklarni davolashning yangi usullari ishlab chiqilmoqda. Texnologiya parkida zamonaviy



QATAR YIRIK GAZ-NEFT ZAXIRALARIDAN TUSHADIGAN MILLIY DAROMADNI, BIRINCHI NAVBATDA, XALQ TURMUSH DARAJASINI KO'TARISH, YURT MANFAATLARINI ILGARI SURISH DOIRASIDA AHOILI UCHUN QULAY SHART-SHAROIT YARATISHGA YO'NALTIRMOQDA. BU ESA MAMLAKATDA OLIY TA'LIM TIZIMI, ILMIY TADQIQOT FAOLIYATI HAMDA INNOVATSION SIYOSATNI TOBORA RAVNAQ TOPTIRISHNI TAQOZO ETMOQDA. SHU TARIQA QATAR OLIY TA'LIM VA INNOVATSION RIVOJLANISH SOHASIDA MUHIM YUTUQLARGA ERISHMOQDA.

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha startap loyihalar qo'llab-quvvatlanmoqda. Raqamli ta'lim platformasini yaratish bo'yicha ilmiy loyiha amalga oshirilmoqda. Ma'lumotlar tahlili laboratoriyasida tahlil qilishning innovatsion usullari yaratilib, mazkur ilmiy tadqiqotlar natijalaridan amaliyotda keng foydalanilmoqda.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti vakillari oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan akademik va innovatsion hamkorlik o'rnatish hamda aloqalarni rivojlantirish uchun Doha shahridagi qator nufuzli universitetlar, ilmiy-tadqiqot muassasalarida muloqotlar o'tkazdi. Safar davomida Qatar universiteti, Hamad bin Xalifa universiteti, "Al-Jazira" media instituti, Qatar ilmiy tadqiqotlari rivojlantirish va innovatsiyalar kengashi, Milliy tadqiqotlar jam'armasi, Qatar fondi, Fan va texnologiyalar parki, AVEY innovatsion loyiha vakillari bilan uchrashuvlarda O'zbekiston hayotining barcha jabhasidagi keng ko'lami islohotlar, xususan, kadrlar tayyorlashning yangi tizimi haqida batafsil ma'lumotlar taqdim etildi.

Ikki davlat oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari o'rtasida hamkorlik o'rnatilishi istiqbolida arab tili va adabiyoti, sinxron tarjimonlik, tarixiy va adabiy manbahunoslik sohasida kadrlar tayyorlash, shuningdek, ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalar sohasidagi faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Zero, hozir Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida 800 dan ziyod talaba arab

tilini o'rganmoqda. Bu til oliy ta'lim muassasasidagi filologiya, tarix, xalqaro munosabatlar, iqtisodiyot, turizm, falsafa kabi bilim sohalariga oid barcha ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarida o'qitiladi. Universitetda 30 dan ziyod o'qituvchi arab tilidan dars bermoqda.

Qatar universiteti QS xalqaro reytingi bo'yicha 209-o'rinni egallagan. U aniq va ijtimoiy fanlar, shuningdek, san'at, tibbiyot, biologiya, axborot texnologiyalari bo'yicha mintaqada yetakchilik qiladi. Universitetning Arab tilida so'zlashmaydiganlarga arab tili o'rgatish markazi ushbu tilni xorijliklarga o'qitish bo'yicha yetakchi o'quv, ilmiy va metodik maskan hisoblanadi. Universitetda o'tkazilgan uchrashuvda muassasaning Arab tilida so'zlashmaydiganlarga arab tili o'rgatish markazi, jamoatchilikka xizmat qilish va uzluksiz ta'lim markazida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabalarini arab tiliga o'qitish hamda qatari o'qituvchilarni TDSHUda arab tili bo'yicha dars o'tishga yuborish uchun o'zaro hamkorlik borasida anglashuv memorandumini imzolashga kelishib olindi. Shuningdek, TDSHU arab tili o'qituvchilari va shu tilni o'rganayotgan talabalar uchun Qatar universitetida bir yillik va qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etish, hamkorlikda arab tilini masofaviy o'qitish bo'yicha ilmiy loyiha ishlab chiqish rejalashtirildi.

Hamad bin Xalifa universiteti fan va muhandislik, gumanitar va ijtimoiy fanlar, huquq va sog'liqni saqlash kabi keng

ko'lami fanlarni qamrab oluvchi bir nechta kollej va ilmiy-tadqiqot institutlarini o'z ichiga oladi. Bu OTM bilan TDSHU professor-o'qituvchilariga ilmiy loyihalarni joriy qilish, ijtimoiy innovatsiyalarni tashkil etish bo'yicha seminar va vorkshop o'tkazish, Train the trainers dasturi doirasida ikki tomonlama tashriflarni tashkil etish, shuningdek, startap ekotizim rivojiga qaratilgan akseleratsiya va inkubatsiya dasturlarini joriy etish borasida hamkorlik qilish o'zaro manfaatli bo'ladi.

Shuningdek, universitetning Kompyuter tadqiqotlari instituti bilan hamkorlikda sun'iy intellekt asosida arab-o'zbek tarjima platformasini yaratish bo'yicha qo'shma tadqiqotlar o'tkazish va yosh olimlar uchun stajirovka dasturlarini tashkil etish, gumanitar va ijtimoiy fanlar fakulteti bilan tarjimonlik, audiovizual tarjima, madaniyatlararo muloqot bo'yicha magistratura dasturlarini amalga oshirish, badiiy adabiyotlarni arab-o'zbek tillariga tarjima qilish maqsadga muvofiq.

Xizmat safari doirasida "Al-Jazira" media tarmog'ining tarkibiy qismi sifatida televideniye va internet jurnalistlarini tayyorlash, ularning malakasini oshirish yo'nalishida faoliyat yuritayotgan "Al-Jazira" media instituti rahbarlari bilan uchrashuv o'tkazildi. Ikki tomonlama muloqotda Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti va "Al-Jazira" media instituti o'rtasida anglashuv memorandumini loyihasi ishlab chiqish, TDSHUNing xalqaro jurnalistika ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar o'quv amaliyotini institut bazasida tashkil etish, "Al-Jazira" media institutining masofaviy arab tili o'quv kursida talabalar tahsil olishini yo'lga qo'yish, hamkorlikda O'zbekistonning Farg'ona hunarmandlik san'ati va Boysun turistik salohiyati borasida arab jamoatchiligiga yo'naltirilgan telereportaj tayyorlashga kelishildi.

Qatar ilmiy tadqiqotlari rivojlantirish va innovatsiyalar kengashi Milliy tadqiqotlar jam'armasi vakillari bilan ilmiy tadqiqot va innovatsiya sohasida hamkorlik qilish borasida fikr almashildi. Uchrashuv natijasida O'zbekiston va Qatar ilmiy-pedagog kadrlari hamkorligida qo'lyozmalarni tadqiq etish, o'zbekistonlik olimlarni Qatar ilmiy tashkilotlariga qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborish, ikki davlat yosh tadqiqotchilari ishtirokida ilmiy konferensiyalar, seminarlar o'tkazish, istiqbolda TDSHU bazasida O'zbekiston — Qatar ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar markazi tashkil etish va ijtimoiy sohaga oid ilmiy loyihalarni amalga oshirishga kelishildi.

1995-yilda inson kapitali, jumladan, ta'lim va ilmiy tadqiqotlar, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan Qatar fondi va uning huzuridagi Fan va texnologiyalar parki hamda texnoparkdagi AVEY innovatsion loyiha mas'ullari bilan ham qator uchrashuvlar o'tkazildi.

Fan va texnologiyalar parki 2004-yilda Doha shahrida innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni rivojlantirish maqsadida

tashkil etilgan. Texnopark ilm-fan, ishlab chiqarish va tadbirkorlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish uchun platforma bo'lib xizmat qiladi. Uchrashuvda fond bilan hamkorlik istiqbollari, Qatar va O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari bilan ustuvor yo'nalishlar bo'yicha qo'shma o'quv dasturlari tashkil etish, ushbu yo'nalishdagi muammolar yechimiga qaratilgan ilmiy loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini muhkama qilindi. Uchrashuv yakunida TDSHU professor-o'qituvchilari uchun akselerator va biznes inkubator dasturlari bo'yicha mahorat darslari o'tkazish, AVEY innovatsion loyihasi tomonidan yaratilgan sun'iy intellekt ilovasi TDSHU professor-o'qituvchilari bilan hamkorlikda o'zbek tilida ishlashini yo'lga qo'yishga kelishib olindi.

Qatar ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlik o'rnatishga qaratilgan sa'y-harakatlar doirasida O'zbekistonda chet el universitetlari filiallari ochilayotgani, umuman, yurtimizda arab tilini o'rganishga qiziqish ortayotgani ta'kidlandi. Xususan, Prezidentimizning "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, TDSHU huzurida Sharq madaniyati va merosini tadqiq etish ilmiy-tadqiqot markazi hamda Sharq mamlakatlarining rivojlanishini tadqiq etish ilmiy-tahlil markazi tashkil etilgani aytiladi.

Qatar ilmiy-tadqiqot muassasalari TDSHU bilan ilmiy loyihalarni amalga oshirish taklifi ilgari surildi. Qatar tomonidan TDSHU bilan o'qituvchilar va iqtidorli yoshlarning lingvistik sohasidagi ilmiy loyihalarni, innovatsion ishlanmalarni tayyorlash bo'yicha malakasini oshirishga qaratilgan ilmiy-nazariy seminarlar, dolzarb mavzularda konferensiyalar o'tkazish, hammualliflikda monografiyalari yaratishda hamkorlikka tayyorligini bildirdi.

Qatar yetakchi sohalarida innovatsion yutuqlarga erishib bormoqda. Buning uchun mamlakatda zarur shart-sharoit va infratuzilma yaratilmoqda. Oliy ta'lim va ilm-fan sohasidagi islohotlar mamlakatning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Istiqbolda oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari Qatarning xalqaro nufuzini yanada oshirishni kutilmoqda. Davlat ta'lim tizimidagi islohotlar natijasida yuqori saviyali va malakali mutaxassislar tayyorlashga erishmoqda. Bu esa mamlakatda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish, barqaror taraqqiyotni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Mazkur davlatning oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan erishilgan kelishuvlar asosida istiqbolda Qatar universiteti, "Al-Jazira" media institutining qisqa muddatli malaka oshirish kurslariga arab tili o'qituvchilari va talabalarini yuborish, O'zbekiston — Qatar aloqalariga bag'ishlangan ilmiy anjuman o'tkazish, arab jamoatchiligini O'zbekiston haqidagi yangi ma'lumotlar bilan tanishtirib borish bo'yicha tegishli ishlar boshlab yuborildi.

TA'LIM

Rishton tumanidagi "Markaz" mahalla fuqarolar yig'inida "Mersin" ("Bilimdonlar shahri") nomli xususiy maktab faoliyat ko'rsata boshlaganiga endigina bir yil bo'ldi. Dastlab 58 nafar o'quvchini 5 ta boshlang'ich sinfga qabul qilishdan ish boshlagan muassasada yangi o'quv yilidan o'quvchilar soni 140 nafarga yetdi. Bu yerda matematika, ingliz tili va rus tili chuqurlashtirilgan holda o'qitiladi. Mashg'ulotlar soat 8 dan 16 ga qadar o'tkazilmoqda. O'quvchilar nonushta va tushlik bilan ta'minlangan.

Muhimi, farzandini bu yerda o'qitish istagida bo'lganlar ko'payib boryapti. Bu bejiz emas. Maktabga ustoz muallim, xalq ta'limi a'lochisi G'ofurjon Xolboyev boshqosh. Fanlarni o'zlashtirish, bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish bilan bog'liq barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

Rus tili va adabiyoti muallimi G'ofurjon Xolboyev 70 yoshni qarshi oldi. Umriining 42 yilini bolalarga ta'lim-tarbiya berishga bag'ishlagan ustoz oilasi Zohidon qishlog'idagi o'qituvchilar sulolasi sifatida e'tirof etiladi. Besh farzandning 4 nafari ota kabinaning davomchilari bo'lib, elga tanildi, hur-



mat-e'tibor topdi. Muazzam, Ma'mura rus tili va adabiyoti o'qituvchisi, Dilobar o'zbek tili va adabiyotidan, Minavarxon esa ingliz tilidan yoshlarga saboq beradi.

G'ofurjon domla nafaqaga chiqqach, "Zohidon" mahalla fuqarolar yig'ini raisi etib saylandi. Ammo unga maktab hayoti, yoshlar kamoloti yo'lidagi sa'y-harakatlar tinchlik bermadi. Yarim yil o'tar-o'tmas, jonajon maktabiga qaytib, yana 13 yil faoliyat ko'rsatdi.

Bunday sharafli va mashaqqatli yo'lni bosib o'tish osan bo'lgani yo'q. Kun bo'yiga maktabda bo'lib, kam maosh evbaviga oila

tebratgan, mehnatiga yarasha manfaat ko'rmagan ko'plab ustozlar o'z kasbini o'zgartirgani ham bor haqiqat. G'ofurjon muallim mehnat mashaqqatlariga dosh berdi. O'qituvchilik sharafiga munosib bo'lish yo'lida izlandi, imkoniyat qidiradi.

G'oyaning tug'ilishi

Dasturxon atrofida jam bo'lgan oila yurtimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, o'qituvchilar qadr-qimmatini

XOLBOYEVNING OILAVIY MAKTABI

oshirish yo'lida berilgan imtiyoz va imkoniyatlar haqida suhbatlashib qoldi. Tumandagi 2-umumta'lim maktabida rus tili va adabiyotidan saboq berayotgan to'ng'ich qiz Muazzam rus tiliga ixtisoslashgan umumta'lim maktabi tashkil etish taklifini ilgari surdi. Chunki tumanda ixtisoslashgan nodavlat ta'lim muassasasi yo'q. Talab bor, ammo imkoniyat yo'q edi. Bir necha yil bu sohada ishlab, yaxshigina tajriba to'plagan Muazzam tashabbusini otasi qo'llab-quvvatlab, amaliy yordam ko'rsatishiga umid qiladi.

— Bosh bo'lib, yo'l-yo'riq ko'rsatib tursangiz bo'lgani. Qolganini o'zimiz eplaymiz, — deya opasining fikrini qo'lladi boshqalar ham.

— Avvaliga ko'nmadim. Rus tilida matematika va ingliz tiliga ixtisoslashgan boshlang'ich maktab uchun joy hozirlash, malakali o'qituvchilarni tanlash, o'quvchilarni jalb etish kabi tashkiliy masalalarga yechim topish oson ish emas-da, — deydi G'ofurjon aka. — Bu ishlarni o'g'lim Muslimbek zimmasiga oldi. Ezgu maqsad, hamjihatlik yo'lida boshlagan ishlarimiz samara berib, tumanda birinчилardan bo'lib boshlang'ich sinf yo'nalishida ilk nodavlat ta'lim muassasasiga asos soldik. Salohiyatli ustozlar ko'magida o'quvchilarni fanlarni yaxshi o'zlashtirayti. Mashg'ulotlardan so'ng bolalar bilan guruhlarga bo'lingan holda ish olib boriladi. Har chorakda o'quvchilar bilimini monitoring qilib boramiz. Natijalar tahliliga qarab, ilg'orlarni imkon qadar rag'batlantiramiz. Ayrim bolalar bilim alohida

ishlab, rus tilida nutqini shakllantirish orqali fanlarni o'zlashtirishga e'tibor qarataymiz. Ota-onalar bilan tez-tez muloqot qilamiz. Ular farzandlari ta'lim-tarbiyasidan ko'ngli to'layotganini aytganda, biz ham mamnun bo'lamiz, albatta.

Maktabda o'qituvchi va o'quvchilar uchun maxsus forma hamda kun tartibi joriy etilgan. Mashg'ulotlar ertalabki gimnastika bilan boshlanadi. O'qituvchilar mehnat faoliyati o'quv mashg'ulotlari va qo'shimcha guruhlar faoliyati doirasida rag'batlantirib borilmoqda.

— Oddiy maktablarda mehnatga haq to'lash bo'yicha qat'iy tizim joriy etilgan. Ya'ni belgilangan dars soatidan ortiq haq to'lanmaydi. Bu yerda mehnatga yarasha munosib rag'batlantirish tizimi mavjud, — deydi boshlang'ich sinf muallimasi Biana Emirova. — Yetti million so'm maosh olaman. Har bir sinfda 24 nafar o'quvchi bor. Mashg'ulotlarni interfaol usulda, ko'rgazmali vositalar asosida qiziqarli va esda qolarli qilib o'tkazishga harakat qilamiz. Bu har bir o'quvchi bilan mustaqil ishlash, amaliy yordam ko'rsatish imkoniyatini beradi. Shu bois, o'quvchilarda fanlarni o'zlashtirish yaxshi kechmoqda.

"Nafaqamni o'quv jihozlari xaridiga sarflayapman"

— Yangi maktab faoliyatini yo'lga qo'yish uchun dastlabki mablag' talab etilishi tabiiy, albatta, — deya so'zida davom etadi

di keksa muallim. — Bankdan kredit oldik. Lekin bu bilan cheklanib qolganimiz yo'q. Nafaqa pulimni jamlab, maktab uchun kerakli o'quv jihozlari xarid qilishga sarflayapman. Hozir jarada turibmiz. Talab va takliflarni inobatga olib, yangi maktab qurilishi ustida ish olib boryapmiz. Bu ta'lim muassasamiz imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Tadbirkor Obidjon Azimov "Bog'iston" mahalla fuqarolar yig'inida yashaydi. Mahalla hududida umumta'lim maktabi bor. Lekin u farzandining ixtisoslashgan maktabda tahsil olishini istaydi. Sababi, uning ikki qizi rus tili va adabiyoti muallimi Muazzam Xolboyeva qo'lida tahsil olib, o'qituvchilikdek sharafli kasb etadigan tutgan.

— O'g'lim Orifjon shu maktabning 2-sinfida o'qiydi, — deydi Obidjon. — Ta'lim-tarbiya jarayoni yaxshi yo'lga qo'yilgan. Rus va ingliz tillarida biyiron so'zlayotgani, fanlarni yaxshi o'zlashtirib, bilimga qiziqishi ortib borayotganidan xursandman. Turmush o'rtog'im bilan ishdamiz. Farzandimiz kun davomida maktabda, ustozlar ko'magi va nazoratida ta'lim-tarbiya olayotgani bizga har jihatdan ma'qul bo'lmoqda.

Sirasini aytganda, ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi. Bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi keyingi yillarda yanada rivojlanib, taraqqiy etib bormoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

XOTIRA UYG'ONSA GO'ZALDIR

INSONNI YUKSALISHGA DA'VAT ETGUVCHI BUYUK TUYG'U yoxud tili o'tkir felyetonchining o'ziga xos uzri

O'zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib", "Shirin qovunlar mamlakati", "Besh bolali yigitcha" kabi asarlari XX asr o'zbek bolalar adabiyotining katta yutuqlari sanaladi. Biroq yozuvchi ijodining dastlabki bosqichida qalami o'tkir felyetonchi sifatida tanilgan. Biz shogirdlar adabiy davrlarda "Aytinch, ustoz, mashhur felyetonchi qanday qilib beozorgina bolalar yozuvchisiga aylanib qoldi? Yoki tili o'tkir felyetonchining o'ziga xos uzri mu bu?" degan savolni ko'p berar edik. Shunda Xudoyberdi aka bir jilmayib, "Bir xil ruhiy holatdan boshqa bir ruhiy holatga o'tish osonlikcha kechmaydi. Shafqatsiz felyetonchidan bolalar adabiyotiga o'tib ketishimdan oldin bir qancha ruhiy bosqichlardan o'tganman", der edi.



shunday deydi: "Sehrlil qalpoqcha"dagi quvnoq yumor, boy fantaziya menga ma'qul bo'ldi". Bu iliq so'zlar ijodkor yuragida o'z maqsadlariga nisbatan ishonch tuyg'usini uyg'otgan ekan. Chunki o'sha kezlari ustoz "qo'limni mushk qilib jinoyatchilar bilan tokaygacha olishib yuraman", deya o'ylanib yurgan payti bo'lgan.

qo'ya, sen aytgan gapni, jon qulog'i bilan tinglaydi, shu gapni sendan eshitgani uchun maqtanib ham yuradi. Xuddi ana shu ma'noda Xudoyberdi To'xtaboyev ham hamdard sifatida bolalarni tanlagan bo'lishi mumkin. Ustoz "Meni bolalarga bog'laydigan ichki dardim ularga bo'lgan bitmas muhabbatim va achinishimdir. Yig'layotgan bolalarni ko'rsam, yoniga o'tirib yupatsam deymen. Yaxshi o'qimayotgan bolani ko'rsam "esizgina, shu paytda vaqtini bekorga o'tkazmay, ko'proq o'rganib, ko'proq o'qisa, ma'naviyati butunroq o'sadi", deya achinaman. Har bir boladagi Alloh bergan qobiliyat ertaroq ochilsa yaxshi bo'ladi deb o'ylayman", deya ko'p ta'kidlar edi. Bolalar uchun tug'ilib, bolalar uchun yashagani, yozayotganida keksa yoshdagi odam bo'lib emas, xuddi bolaning o'zi bo'lib yoki yaqin o'rtog'iga aylanib yozishini ko'p bora aytgan.

Chindan ham kattalarga berilgan savollar va olingan javoblar vositasida bola yoki o'smiring shaxsi shakllanib boradi. Begubor, o'yinlarga to'la bolalik tugab, asta-sekin mas'uliyatli o'smirlik pallasi boshlanadi. Bu ham tabiiy ham kamolot tuyg'usining qistovi. Bu tuyg'u bola yoki o'smiring rivojlanishiga qarab, birida kuchsizroq, boshqasida kuchli bo'lishi mumkin. O'smiring o'lad, maktabda, o'rtoqlari o'rtasida eshitganlari uni qoniqtirmay qoladi. Xudoyberdi To'xtaboyev ta'kidlaganidek, favqulodda, juda qiziqarli yoki qo'rqinchil kechinmalarni boshidan kechirgisi keladi. Poyonsiz o'rmonda adashib, so'ng yo'l topib chiqib ketsa, qo'rqinchil qarochilar bilan uchrashib ularni yengsa, hech kimning aqli yetmaydigan yangi bir mashinani ixtiro qilsa, paxtaning shunday bir navini yaratasa, ko'sak pishib ochilsa-yu, lo'ppi-lo'ppi paxtalar o'z-o'zidan oqib kelib, xirmonda to'planaversa, sigimning qomida sutni pishloqqa aylantiradigan apparat ixtiro qilsa...

Ne uchun dunyoga keldik, Yaxshini bilmasak biz. Ne uchun dunyoga keldik, Yaxshilik qilmasak biz, degan so'zlar qasamyod tariqasida yozilgan ekan. Yozuvchi tarixiy manbalarni chuqurroq o'rgangani, o'sha davrlarni ko'rgan keksalar bilan ko'proq suhbatlashgani sari o'ttiz yetti yoshida xoinlar tomonidan o'ldirilgan bu jasur yigitni astoydil, misoli o'z o'g'lidek yaxshi ko'rib qolgan haqida bizga mehr bilan hikoya qilgan. Ijodiy uchrashuvlarimizda bolajonlar ustozimizni Hoshimjon haqidagi savollarga ko'mib tashlar edi. Shunda yozuvchi "Hoshimjon — bu mening o'zim, bolalikdagi orzularim, shodliklarim, shumliklarim, armonlarim. Yozayotganimda biror voqeani o'yab topganim yo'q, turli-tuman voqealar, quvliklar-u shumliklar o'z-o'zidan oqib kelavergan. Bir o'rinda qiqirlab kulib, choqqillab ko'chaga chiqib ketaridin, boshqa bir o'rinda Hoshimjon yig'lasa, men ham qo'shilib yig'lardim. Hozir ham gohida Hoshimjonga aylanaman, goh sakson yoshli Xudoyberdi bobo bo'lib qolaman", deganlarini zavq bilan eslayman.

bi obdon urchigan o'sha davrlarda yerga olov yoqib, ko'yakni olovga qoqib-qoqib olish urush yillariga xos manzaralardir. Biroq bu gaplar bugungi bolalarga ertak bo'lib tuyuladi. Lekin bu mashaqqatlarni yengishda rahmatli bobolarimiz, jannati buvilimizning qalbidagi go'zalliklar muhim rol o'ynagan. Bolalar qo'lga tok qaychi olib qarovsiz qolgan oilalarning toklarini kesib berardi. Buvilar zog'ora undan atala pishirib och qolgan oilalarga ulashardi". Shu o'rinda ustozdan eshitgan yana bir voqeani aytib o'tsam. 1943-yili ocharchilik, qahatchilik avjiga chiqqan payti. Xudoyberding o'gay akasi tuz koniga borib, katta ko'k eshagiga qop-qop tuz yuklab kelib, qishloqlarga sotgan. Shu bois, o'ila o'z bo'lsa-da, qut-baraka bor edi. Rahmatli onasi "Bir hovuch sholini olib chiqib tuzasizlar, osh qilamiz" deydi. Palov yeyish istagidagi bolalar navbatma-navbat keli atrofida aylanishganini bir ko'rsangiz edi. Nihoyat osh qilib damlanadi. Rahmatli onasi bo'lsa "qo'lni yuvib tanchaga o'tiringlar, tilovat qilamiz", deydi. Tilovat qilindi ham. Tilovat qilib hovlaga chiqishsa, qozon yo'q. Shunisi qiziqchi, osh yeyayotganimizda birov xalaqit bermas deb ko'cha eshikni ichkaridan berkitib qo'yishgan bo'ladi. Bir mahal o'gay akasi bo'q tomondan "manavi kalishni ko'ringlar, Rahimning kalishi, Rahimning kalishi", deb chopib keladi. Hammalari O'g'il xolaning uyiga yugurishadi. Hech qullifanmaydigan eshiklari qulf edi. Akasi eshikni urib ochadi. Qozondagi oshning dam tovog'i endi ochilayotgani bois, bolalarning dimog'iga osh hidi uriladi. Shunda behora onasi "O'g'il xola, Xudoga shukr, shu oshni birga yeymiz deb niyat qilgandim. Rahim, yoshdan oshganingizda ham bolalarcha ruhiyatini, qalini asrab qoldingiz. Buning siri nimada?" deb ko'p savol berishar edi. Shunda ustozimiz beg'ubor jilmayib shunday javob berar edi: "Oybek domla urush yillarining ho'kiziga ham jabr bo'lgan", degan iborani juda o'rinni ulatgan. Ha, biz urush yillarida ulg'aygan bolalar bolaligimizdoy qariy boshlaganmiz. Urush yilining barcha mashaqqatlari bolalar yelkasiga tushgan desam, ishonaverang. Ota-onadan judo bo'lish, och-nahor qolish, bir burda non uchun bir-biri bilan mushkllashish, oiladagi farzandlarning bir kalishni navbatma-navbat kiyib maktabga qatnashlari, burga va



Meni hamisha bir narsa hayratga solib keladi. Xudoyberdi To'xtaboyev mansub bo'lgan avlodning bolalik yillari oson kechmagan. Bunday davr va muhitda bolalar erta ulg'ayib qoladi. Ustozga "Siz sakson yoshdan oshganingizda ham bolalarcha ruhiyatini, qalini asrab qoldingiz. Buning siri nimada?" deb ko'p savol berishar edi. Shunda ustozimiz beg'ubor jilmayib shunday javob berar edi: "Oybek domla urush yillarining ho'kiziga ham jabr bo'lgan", degan iborani juda o'rinni ulatgan. Ha, biz urush yillarida ulg'aygan bolalar bolaligimizdoy qariy boshlaganmiz. Urush yilining barcha mashaqqatlari bolalar yelkasiga tushgan desam, ishonaverang. Ota-onadan judo bo'lish, och-nahor qolish, bir burda non uchun bir-biri bilan mushkllashish, oiladagi farzandlarning bir kalishni navbatma-navbat kiyib maktabga qatnashlari, burga va

Shukrullo ABDULLAYEV, yozuvchi

XIVA — 2024-YILDA ISLAM DUNYOSINING TURIZM POYTAXTI

Kurrayi zaminning ko'hna madaniy o'chog'i

UZUNLIGI 6 KILOMETRLIK DEVOR YURTIMIZNING QAYSI SHAHRIDA?

Ikromiddin OSTONAQULOV, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi katta ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori

Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar turizm vazirlarining 2022-yil 27-29-iyun kunlari Ozarbayjonning Boku shahrida bo'lib o'tgan XI sessiyasida "Xiva — 2024-yilda islom dunyosining turizm poytaxti" deb e'lon qilindi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Prezidenti 2023-yil 12-iyulda "Xiva — 2024-yilda islom dunyosining turizm poytaxti" xalqaro tadbiriga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorni imzoladi.

Amudaryoning chap sohilida joylashgan Xiva kelgusi yilning bahorida xalqaro turizm festivali mezbongina aylanadi. Qarorga ko'ra, 2024-yil martda xalqaro tadbir rasmiy ravishda ochildi. May oyida esa Xiva shahrida islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar turizm vazirlarining XII sessiyasi bo'lib o'tadi. Xiva shahrining turizm salohiyatini faol targ'ib etishga yo'naltirilgan gastronomik festival, ulug' alloma Pahlavon Mahmud xotirasiga bag'ishlangan xalqaro bahodirlar o'yni o'tkaziladi.

Xalqaro ziyorat turizmi haftaligi doirasida qator tadbirlar ham rejalashtirilgan. Ayni kunlarda Xivadagi ziyorat turizmi obyektlarini ta'mirlash, obodonlashtirish bo'yicha xayrli ishlar jadal sur'atda bormoqda. Jumladan, Ichanchal'ga majmuasidagi Juma masjidi holatini o'rganish, ekspert xulosalarini shakllantirish va rekonstruksiya qilish choralari ko'rish bo'yicha ishlar davom etmoqda. Bibi Hojar majmuasi hududini obodonlashtirish, sayyohlarni qabul qilish uchun sharoit yaratib, ular tashrifini tashkil qilish bo'yicha rejalalar bajarilmoqda. Xivada 20 ming kitob fondiga ega yangi kutubxona bunyod etish, mehmonxonalarni xalqaro talablar darajasi-

ga keltirish uchun matusaddi tashkilotlar to'la safarbar etilgan.

Xorazm qadimiy obidalari, muqaddas ziyoratgohlari, xushmanzara tabiati, madaniy qadriyatlari va urf-odatlari, milliy raqslari, adabiy va musiqiy san'ati bilan jahon sayyohlarini jalb etib kelmog'ida. Xiva esa Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlari kabi O'zbekistondagi xalqaro madaniy obro'-e'tiborini jahonga ko'z-ko'z qilmoqda. Markaziy Osiyoning ko'pgina shaharlari qatori Xiva kurrai zaminning eng ko'hna sivilizatsiya o'choqlaridan biri bo'lib, buyuk madaniy tarixga ega. U butunligicha saqlanib qolgan mintaqadagi yagona nodir obida shahardir. Asrlar osha bizgacha yetib kelgan Ichanchal'aga bugun dunyoning turli burchaklaridan minglab sayyohlar tashrif buyurib, ajdodlarimizning ijodiy salohiyati va san'atidan hayratda qolmoqdalar.

Arxeologik tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, shahar kamida 2700 yoshda. Bu esa Xiva qo'riqxonaga shahar deb e'lon qilinishiga, shaharning markaziy qismi — Ichanchal'ga esa jahon ahamiyatidagi tarixiy yodgorlik deb e'tirof etilishiga asos bo'ldi. Xiva shahrida xonlik davrida bunyod etilgan 64 ta

madrasaning asosiylari bizgacha saqlanib qolgan. Ular ichida eng yirigi va me'moriy jihatdan go'zali Xiva xoni Muhammad Aminxon tomonidan qurilgan madrasadir.

Ichanchal' Xorazm shevasida "ichki qal'a" ma'nosini beradi. Xivaning ichki qal'asi shahristoni Dishanqal'a (tashqi qal'a) qismidan kungurador devor bilan ajratilgan. U Xiva raboti — Dishanqal'adan balandda tepa-qo'rg'onga o'xshab ko'zga tashlanadi. Ichanchal'aga Bog'cha darvoza, Polvon darvoza, Tosh darvoza, Ota darvoza nomli to'rt darvozadan kirilgan.

Ichanchal'a devori ilk bor eramizdan avvalgi V-IV asrlarda qurilgan bo'lib, davr o'tishi bilan bir necha bor ta'mirlangan. Devorning balandligi 7-8 metr, qalinligi pastida 8-10, yuqorisida 2-3 metr, uning ustida bemalol aravada yurish imkoni bo'lgan. Qal'a bir necha marta buzilib tuzatilgan haqida tarix-

chi Xudoyberdi Qo'shmuhammad o'g'lining "Dili g'aroyib" asarida bayon etilgan. Bu tarixiy devorning uzunligi 2200 metr bo'lib, to'rt tomonga qarata qurilgan darvozalari bor.

Dishanqal'a shaharning tashqi qismi bo'lib, devorlari uzunligi 6 kilometr, balandligi 8 metr va qalinligi 6 metrdan iborat. Eski shaharga bugungi kunda ham mustahkam saqlanib kelayotgan to'rtta darvozadan kirsa bo'ladi. 100-yillar muqaddam esa bu darvozalar soni 10 ta bo'lgan.

Toshhovli saroyida Xiva xonlari mehmonxonalarini, turar joyi, haramlari bo'lib, hashamdorligi, naqshinkorligi bilan ajralib turgan. Xiva xonlarining bir necha saroyi bugungacha holati va me'moriy salobatini yo'qotmagan. Ana shunday mashhur saroylardan biri Ollqo'lnonning 1830-1838-yillarda barpo etilgan Tosharsoyidir. Toshhovli 80x80 metrni tashkil etadi.

Ko'hna Ark — eski qal'a qadimda Xiva xonlari qarorgohi bo'lgan. Uning tarkibida zarbxona, rasmiy qabulxona, devonxona, harbiylar turargohi hamda siyosiy mahbuslar uchun hibsonalar bo'lgan. Bino Sharq naqqoshlik san'atidan unumli foydalanilgan holda barpo etilgan bo'lib, eshik va romlari yog'och o'ymakorligi bilan ziynatlangan.

Xivanning yana bir inshooti Kalta minor. Bu inshoot islom dunyosida eng baland minor bo'lishi ko'zga tutilgan. Uning diametri 14 metr. Agar bu qurilish to'xtatilmaganida, u misli ko'rilmagan osmono'par minoraga aylangan bo'lar edi. Minor 26 metr tiklangandan so'ng qurilish davom ettirilmagan. Sababi shu kungacha aniqlanmagan.

Pahlavon Mahmud (1322-yil) vafot etgan maqbarasi shoir va alloma, mashhur pahlavon, vatanparvar va ma'rifatparvar insonning so'nggi manzili sanalib, ziyoratgohga aylangan. U haqda afsonalar ham to'plangan. Maqbara O'zbekistondagi boshqa qadimiy shaharlarda kam uchraydigan o'ziga xos feruzarang gumbaz bilan qoplangan. Ichki tomondan chiroyli havorag yarqiroq chinni lappaklar — plitkachalar bilan naqshlangan.

Islomxo'ja minorasi sayyohlar eng ko'p tashrif buyuradigan mashhur qadamjolaridan biri. Bu inshootni Qutlug' Temur deya nom olgan Ko'hna Urganch minorasi bilan ham taqqoslash mumkin. Balandligi 45 metr bo'lgan uchun Xivanning har qaysi nuqtasidan ko'rinadi. O'z davrida ushbu minor uezq manzillaridan kelayotgan karvonlar uchun mayyof zavzifasini o'tagan bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Ko'hna shahar ko'rkinini jahonga ko'z-ko'z qiluvchi Nurillaboy majmuasi yanada jozibador bo'lib bormoqda. U Xivanning



"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DUK MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir: Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-1046. 43312 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Feruza Jo'rayeva Dizayner: Zafar Ro'ziyev Manzillimiz: 100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy Topshirildi — 03:15